

QONUNCHILIK HUJJATLARI, TOPSHIRIQLAR HAMDA HUKUMAT QARORLARINING IJROSI YUZASIDAN “O‘ZAGROINSPEKSIYA”DA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR

“O‘zagroinspeksiya” tomonidan ijro intizomiga rioya qilish bo‘yicha ishlar qonunchilik hujjatlari talablari doirasida davom ettirilmoqda va belgilab berilgan chora-tadbirlarning samaradorlik va natijadorligiga katta e‘tibor berilmoqda.

Xususan, 2026 yilning fevral oyida **63** ta hujjat, shundan, O‘zbekiston Respublikasining **3** ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **10** ta farmon, farmoyishlari va **23** ta qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining **27** ta qarorlari ro‘yxatga olinib, ijroga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 10 fevraldagi **PF-6166**-sonli Farmoni hamda 31 maydagi **PQ-5132**-sonli qaror talablaridan kelib chiqib, ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha **har haftaning dushanba va juma kuni** muhokama qilinib, o‘tkazilayotgan apparat yig‘ilishlari kengaytirilgan yig‘ilish hamda rayyosat yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirildi va har bir topshiriq ijrosi ta‘minlanishi nazoratga olinib kelinmoqda.

“**Ijro.gov.uz**” tizimida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tahliliy axborotlar hamda Inspeksiyaga kelib tushgan qonunchilik hujjatlari ijrosini muddatidan oldin ta‘minlash maqsadida har oyda **Kalendar-grafik jadvallari** ishlab chiqilmoqda va shu asosida ishlar kunlik tashkil etilib, natijasi bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasiga** axborot kiritilib kelinmoqda.

Tizimda O‘zbekiston Respublikasining **qonunlari**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **Farmon, qaror, farmoyishlari**, Prezident Administratsiyasi rahbarining **topshiriqlari** hamda Hukumatning **qaror va farmoyishlari** ijrosi qat’iy nazoratga olingan.

Joriy yilning **fevral oyida** Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali **2** ta Prezident farmoni bo‘yicha kelib tushgan **16** ta topshiriqlar yuzasidan **nazorat rejalari ishlab chiqildi** va **tegishli ijrochilarga yo‘naltirildi**.

Shu bilan birga, “Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya” ning ish yurituvida bo‘lgan **fevral oyi** muddatli **19** ta qonunchilik hujjati bo‘yicha **27** ta topshiriq ijrosi yuzasidan ishlar tashkil qilinib, amalga oshirilgan ishlar natijasida **27** ta topshiriqning bo‘yicha axborotlar tegishli davlat organlariga

kiritilib, belgilangan tartibda muddatidan oldin nazoratdan yechilishi ta'minlandi.

2026 yil 28 fevral holatiga "Ijro.gov.uz" tizimi orqali **44** ta Prezident hujjatlari ijrosi yuzasidan **133** ta topshiriqlari bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

2026 yil 1 mart holatiga Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Hukumat komissiyasining **hujjatlari bo'yicha muddati o'tgan topshiriqlar mavjud emas.**

Shuningdek, tizimdagi qonunchilik hujjatlari bo'yicha keyingi oyda ham topshiriqlar ijrosini qat'iy ta'minlash maqsadida 2026 yil 25 fevralda **mart oyida "Ijro.gov.uz"** tizimida bajarilishi lozim bo'lgan nazoratdagi topshiriqlarni bajarishning kunlik **"Kalendar-grafik"** va ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha **"Yo'l xaritasi"** Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilindi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi